

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 846,4 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 16,5 ming kishiga yoki 1,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 361,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 485,1 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2019-yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **16,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **20,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,6 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2019-2020-yillar 1-yanvar holatiga dastlabki ma'lumot, ming kishi)

	2018-yil	2019-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>829,9</b>	<b>846,4</b>	<b>102,0</b>
Guliston sh.	89,0	90,6	101,8
Shirin sh.	18,6	18,7	100,5
Yangiyer sh.	42,4	43,3	102,1
tumanlar:			
Oqoltin	50,9	52,0	102,2
Boyovut	127,2	129,4	101,7
Guliston	70,6	72,5	102,7
Sayxunobod	75,9	77,2	101,7
Mirzaobod	71,2	73,3	102,9
Sardoba	64,7	65,8	101,7
Sirdaryo	125,7	128,2	102,0
Xovos	93,7	95,4	101,8


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 129,4 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 128,2 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,7 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 43,3 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018-yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,9 % ni, Guliston tumanida 2,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-yanvar holatiga dastlabki ma'lumot, ming kishi)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020-yil 1-yanvar holatiga dastlabki ma'lumot, % da)




## Demografik holat

### Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2020-yil 1-yanvar holatiga dastlabki ma'lumot, ming kishi)

	erkak	ayol
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>424,6</b>	<b>421,8</b>
Guliston sh.	45,2	45,4
Shirin sh.	9,1	9,6
Yangiyer sh.	21,6	21,7
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	26,2	25,8
Boyovut t.	65,2	64,2
Guliston t.	35,8	36,7
Sayxunobod t.	38,6	38,6
Mirzaobod t.	38,2	35,1
Sardoba t.	33,4	32,4
Sirdaryo t.	63,7	64,5
Xovos t.	47,6	47,8

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



## Demografik holat


**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 20,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,8 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 2,5 promillega ko'paygan (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 22,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (19,5 promilledan 24,8 promillega), Oqoltin tumanida (22,4 promilledan 26,1 promillega), Guliston tumanida (22,7 promilledan 26,0 promillega), Mirzaobod tumanida (24,9 promilledan 28,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish hududlarda qayd etilmadi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning xomiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni  
(yanvar-dekabr, kishida)**


	2018-y.	2019-y.	O`shish sur`ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>18327</b>	<b>20819</b>	<b>113,6</b>
Guliston sh.	1727	2225	128,8
Shirin sh.	307	361	117,6
Yangiyer sh.	932	1004	107,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1130	1345	119,0
Boyovut	2936	3175	108,1
Guliston	1584	1861	117,5
Sayxunobod	1729	1906	110,2
Mirzaobod	1753	2073	118,3
Sardoba	1487	1670	112,3
Sirdaryo	2607	2919	112,0
Xovos	2135	2280	106,8

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 3,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2018-yilning mos davriga nisbatan tenglashdi. (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Yangiyer shahrida (4,8 promilledan 6,0 promillega), Sayxunobod (4,2 promilledan 4,4 promillega), Xovos (3,9 promilledan 4,5 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo'lib, aksincha Shirin shahrida (5,2 promilledan 4,2 promillega) kamayish holati kuzatildi.


### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
2,1 ming  
kishi

**Ayollar:**  
1,7 ming  
kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi  
(yanvar-dekabr)**

	<b>2018-y.</b>	<b>2019-y.</b>	<b>O`sinh sur`ati, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3790</b>	<b>3821</b>	<b>100,8</b>
Guliston sh.	469	457	97,4
Shirin sh.	97	78	80,4
Yangiyer sh.	202	259	128,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	205	195	95,1
Boyovut	537	550	102,4
Guliston	347	350	100,9
Sayxunobod	319	336	105,3
Mirzaobod	309	304	98,4
Sardoba	264	238	90,2
Sirdaryo	679	625	92,0
Xovos	362	429	118,5




## Demografik holat

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 0,3 % i yuqumli va parazitari kasalliklardan, 10,0 % i o'simtalardan, 7,4 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,9 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,9 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, hamda 9,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 221 nafarni tashkil etib, ularning 59,3 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 38,0 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 % i tug'ma anomaliyalardan, 1,3 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikoh.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (187,4 %), Yangiyer shahrida (106,2 %), Xovos tumanida (101,1 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Guliston (82,0 %), Mirzaobod (86,7 %), Boyovut (92,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,3 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer sh (128,2 %), Sayxunobod (115,2 %) va Mirzaobod (158,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>8562</b>	<b>10,2</b>
Guliston sh.	1531	17,1
Shirin sh.	134	7,2
Yangiyer sh.	496	11,6
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	508	9,9
Boyovut t.	1185	9,2
Guliston t.	611	8,5
Sayxunobod t.	678	8,9
Mirzaobod t.	672	9,3
Sardoba t.	634	9,7
Sirdaryo t.	1170	9,2
Xovos t.	943	10,0

## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019-yil yanvar-dekabr)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1104</b>	<b>1,3</b>
Guliston sh.	210	2,3
Shirin sh.	40	2,1
Yangiyer sh.	100	2,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	67	1,3
Boyovut t.	117	0,9
Guliston t.	79	1,1
Sayxunobod t.	76	1,0
Mirzaobod t.	89	1,2
Sardoba t.	60	0,9
Sirdaryo t.	168	1,3
Xovos t.	98	1,0

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni (yanvar-dekabr, birlik )

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018-y.	2019-y.	O'sish sur'ati, % da	2018-y.	2019-y.	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>8309</b>	<b>8562</b>	<b>103,0</b>	<b>1111</b>	<b>1104</b>	<b>99,4</b>
Guliston sh.	817	1531	187,4	227	210	92,5
Shirin sh.	145	134	92,4	20	40	200,0
Yangiyer sh.	467	496	106,2	78	100	128,2
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	533	508	95,3	55	67	121,8
Boyovut	1283	1185	92,4	144	117	81,3
Guliston	745	611	82,0	84	79	94,0
Sayxunobod	739	678	91,7	66	76	115,2
Mirzaobod	775	672	86,7	56	89	158,9
Sardoba	676	634	93,8	63	60	95,2
Sirdaryo	1196	1170	97,8	207	168	81,2
Xovos	933	943	101,1	111	98	88,3

**Migratsiya.** 2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,5 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	8,6	8,9
<b>Ko'chib ketganlar</b>	9,3	9,4
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,7	-0,5

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,4 ming kishi), Sardoba tumanida (minus 0,3 ming kishi) qayd etildi.

